



PARIS
FRANCE
CONFERENCE
2022.

International Conference on

Modern Science and Scientific Studies

Vol 1, Issue 3, December 19th 2022

ISSN (E): 2835-3730



Topics

- NATURAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES
- APPLIED SCIENCES
- MEDICAL SCIENCES
- ENGINEERING SCIENCES



E- CONFERENCE
SERIES



www.econferenceseries.com

35. IQLIM O'ZGARISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI
Rashidov Valihon Akmaljanovich
161-163
36. ABDULLA AVLONIYNING XX ASR TURKISTON MADANIY HAYOTI VA
MA'RIFATPARVARLIK HARAKATIGA QO'SHGAN HISSASI
Bobojonova Laylo Komilovna
164-166
37. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
Toxirova Dilafruz, Masharifov Bekturdi
167-170
38. TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
Rahimova Muattar Rajabbogevna
171-178
39. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SOLIQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR
Rajabova Bonuxon Samandar qizi
179-184
40. GENDER AND NATIONAL CULTURAL ASPECTS OF THE APPEAL IN ENGLISH AND UZBEK
(Formation of primary gender representations in preschool children in kindergarten conditions)
Alimqulova Dilnoza
185-190
41. MILLIY GVARDIYA QO'RIQLASH XIZMATI TOMONIDAN QO'RIQLANYOTGAN
OBYEKTLARDA SODIR ETILGAN HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOGBARLIK
MASALALARI
Raximov Abrorbek Sobitxon o'g'li, Umarov Azizbek Alijon o'g'li
191-194
42. ПОЭТИКА БЕРДАХА
А.Ж.Утамбетова
195-198
43. TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AYRIM
DOZLARB MASALALARI
Rajabova Barno Samandarovna
199-203
44. SHARQ RENESSANSI DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJI
Rustamova Gulhayo Atabek qizi
204-213
45. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI TARKIBIDA SAMARQAND VILOYATIDA
MUSTAMLAKA SIYOSIY-MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMNING O'RNATILISHI
Sultanova Shahnoza Palvannazir qizi
214-219
46. ORGANIZATION OF TRAINING SESSIONS USING INTEGRATIVE EDUCATION
Эшқораев Қахрамон Абурахматович
220-222

IQLIM O'ZGARISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Rashidov Valihon Akmaljanovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Kafedra :Kammunal va mehnat gigiyena

Annotatsiya:

Zamonaviy dunyoda atrof muhitni muhofaza qilish birinchi o'ringa ko'tarildi. Ekologik vaziyat bilan bog'liq xolda muammoga yetarli darajada e'tibor bermaslik oqibati butun yer shari uchun halokatli bo'lishi mumkin. So'z nafaqat insoniyatning osoyishtaligi, balki uni yashab qolishi to'g'risida ketmoqda. Shunisi havotirlik, tabiiy muhitni yomonlashishi qaytmas bo'lishi mumkin.

Ushbu tezis hozirgi vaqtda juda global muaomolardan bo'lgan iqlim o'zgarishining inson salomatligiga ta'siriga oid adabiyot ma'lumotlarini o'z ichiga oladi, bunda asosan hozirgi eng dolzarb muammolardan bo'lgan global isish, uni insoniyatning salomatlik holatiga ko'rsatadigan ta'siri va natijada eng havfli vaziyat o'limlar sonini o'sishi, turli hil yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ko'payishi holati tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: global isish, yuqumli kasalliklar iqlim o'zgarishi, o'lim, yuqumli bo'lmagan kasalliklar.

19-asrga kelib insoniyat faoliyati jadal suratlar bilan rivojlana boshladi natijada Yer atmosferasida karbonat angidrid, metan va azot oksidi kabi gazlari miqdori ko'paydi, bu esa yer yuzida haroratni ko'tarilishiga olib keldi [1]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida iqlim o'zgarishi 2030 va 2050 yillar oralig'ida o'lim sonining tahminan yiliga 250 000 ga ortishiga olib kelishi kutilmoqda, buning asosiy sabablardan biri bezgak, diareya to'yib ovqatlanmaslik va yuqori harorat bo'lishi mumkin [2]. Shuningdek, yer yuzida haroratning oshishi global o'zgarishlarga olib keladi. Ob-havo hodisalari, o'rmon yong'inlari, dengiz suvlari ko'tarilishi, toshqinlar yuzaga kelishi va turli hil kasalliklar tarqalishi uchun qulay sharoitlar yaratadi [3]. Shuningdek iqlim o'zgarishi natijasida chivinlar orqali yuqadigan kasalliklar har qachongidan ham tezroq tarqalmoqda [4]. Chivinlar orqali yuqadigan kasalliklar orasida bezgak va virusli kasalliklar kabi dunyodagi eng keng tarqalgan kasalliklar katta muammolarni yuzaga keltirishi mumkin [2]. Jahondagi 18 mamlakatdagi 400 tashkillashtirilgan guruhlarida o'tkazilgan xalqaro tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yuqori harorat inson



salomatligiga jiddiy ta'sir qiladi. O'rtacha issiq va o'rtacha sovuq joylarda yashovchi odamlar issiq va sovuq joylarda yashovchi odamlarga qaraganda issiqlik to'liqlariga ko'proq sezgir bo'lishi mumkin [5,6]. Iqlim o'zgarishi yer yuzida me'yorida ancha issiq yoki sovuq havo bo'lishi insonlarning o'lim havfini oshiradi [7]. Shuningdek yer yuzida o'rmon yong'inlari va turli hil insonlardan hosil bo'lgan chiqindilar tufayli havoda ifloslantiruvchi turli hil zararli moddalar ko'payishi nafas olish kasalliklari va yurak-qon tomir, oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar, allergik kasalliklarni ortishiga olib keladi [8]. Iqlim o'zgarishi insonlarning ruhsiy salomatligiga ta'sir ko'rsatadi. Insonlar buni anglagan holda iqlim o'zgarishi insonlarni kelajakda havotir va salbiy oqibatlariga olib kelishini tushunishi lozim [9-10]. Iqlim o'zgarishining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri bolalarni ruhiy salomatligiga, jumladan, stress, depressiya, fobiyalar, uyquning buzilishi havfi ostida qoldiradi [11]. Ko'pchilik olimlar tomonidan global isish 21-asrning eng katta sog'lig'iga tahdidlaridan biri sifatida baholandi [9].

Hulosa qilinganda hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishini yaxshilash uchun atmosfera havosiga turli hil gazlarni chiqishini kamaytirish va aholidan chiqayotgan turli hil chiqindirlarni o'z vaqtida, tez zararsizlantirish ishlari olib borilsa, nafas yo'li kasalliklari, allergik kasalliklar kamaytirishimiz mumkin. Bu esa insonlarning hayot turmush tarzini ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Antonella Rossati. Global Warming and Its Health Impact // Int J Occup Environ Med. 2017 Jan;8(1):7-20. doi: 10.15171/ijoem.2017.963.
2. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/climate-change-and-health>
3. Public health and climate change adaptation policies in the European Union: final report. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe; 2018 (http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0010/386965/Pagoda-REPORT-final-published-2.pdf?ua=1, accessed 28 February 2019).
4. <https://www.who.int/ru/news/item/06-04-2022-who-urges-accelerated-action-to-protect-human-health-and-combat-the-climate-crisis-at-a-time-of-heightened-conflict-and-fragility>
5. Guo Y., Gasparrini A., Armstrong B.G., Tawatsupa B., Tobias A., Lavigne E. Heat wave and



mortality: a multicountry, multicomunity study. *Environ. Health Perspect.* [Internet] 2017 Aug 1;125(8) <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28886602/> [cited 2020 Aug 29].

6. Jean Calleja-Agius, Kathleen England, Neville Calleja. The effect of global warming on mortality// *Early Hum Dev.* 2021 Apr; 155:105222. doi: 10.1016/j.earlhumdev.2020.105222.

7. Pascal M., Wagner V., Corso M., Laaidi K., Ung A., Beaudreau P. Heat and cold related-mortality in 18 French cities. *Environ. Int.* [Internet] 2018 Dec 1;121(Pt 1):189–198. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/30216771/> [cited 2020 Aug 29].

8. Daria Luschkova, Alikea Ludwig, Claudia Traidl-Hoffmann. Climate crisis and its impact on human health // *Dtsch Med Wochenschr.* 2021 Dec;146 (24-25):1636-1641. doi:10.1055/a-1560-7520.

9. Blashki G, McMichael T, Karoly DJ. Climate change and primary health care. *Aust. Fam. Physician.* 2007 Dec;36(12):986–989.

10. Bruce Barrett, Joel W Charles 2, Jonathan L Temte. Climate change, human health, and epidemiological transition // *Prev Med.* 2015 Jan;70:69-75. doi: 10.1016/j.ypmed.2014.11.013. Epub 2014 Nov 28.

11. Guillaume Fond, Christophe Lançon, Pascal Auquier, Laurent Boyer. Climate impact on mental health // *Rev Infirm.* Jun-Jul 2020;69 (262):27-28. doi: 10.1016/S1293-8505(20)30182-2.

